



Maftuna RIZAYEVA,
Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail:rizayevam@gmail.com

PhDG'. Do'stmurodov taqrizi asosida

ONA TILIDAN TA'LIM MODELLARI VA DARS JARAYONINI LOYIHALASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili ta'limi jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik modellarning mohiyati, ularning o'quvchilarda til kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni hamda darsni loyihalashtirishning innovatsion usullari yoritilgan. Shuningdek, loyihalashtirish jarayonida o'quv maqsadlari, metodlar, vositalar va baholash tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ona tili ta'limi, ta'lim modeli, loyihalashtirish, kompetensiya, metod, interfaol yondashuv.

МОДЕЛИ ОБУЧЕНИЯ С РОДНОГО ЯЗЫКА И МЕТОДЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПРОЦЕССА УРОКА

Аннотация

В данной статье освещается сущность современных педагогических моделей, применяемых в процессе обучения родному языку, их роль в формировании языковой компетенции учащихся, а также инновационные методы проектирования уроков.

Ключевые слова: обучение родному языку, модель обучения, дизайн, компетентность, метод, интерактивный подход.

MODELS OF LEARNING FROM THE NATIVE LANGUAGE AND METHODS OF DESIGNING THE LESSON PROCESS

Annotation

This article highlights the essence of modern pedagogical models used in the process of teaching a native language, their role in shaping students' linguistic competence, as well as innovative methods of lesson design. The design process also analyzes the relationship between learning objectives, methods, tools, and the assessment system.

Keywords: native language teaching, learning model, design, competence, method, interactive approach.

Kirish. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyada ta'lim maqsadining aniq shakllanganligi, ta'limning mahsuldorligi, teskari aloqa mavjudligi, kafolatlangan yakuniy natija kabi tamoyillarga asoslaniladi. Ta'limni kompyuterlashtirish jarayonida o'quvchi faoliyatini modelashtirishda ham shu g'oyaga asosan ish tutish lozim.

Ijodiy ta'lim o'quvchi intellektual salohiyatini individual rivojlantirish, har bir o'quvchiga uning o'ziga xos xususiyatlari asosida yondashish uchun keng imkoniyatga ega [2]. Unda o'quvchi o'ziga xos sur'at, motiv, fikrlash yo'li bilan o'quv materialini o'zlashtiradi. Ijodiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlariga ko'pa o'qituvchining poli o'zgapadi, asosiy vazifa o'quvchilar shaxsini rivojlantirish, ularni ijodiy izlanishga yo'naltirish va bu sohada ularga ko'maklashish hamda ijodiy ishlashlarini tashkil qilishdan iborat bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'kidlash o'rinliki, globallashtirish sharoitida til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj inson faoliyatining turli sohalarida o'zini namoyon etmoqda. Ona tilining grammatik tizimi va undan olingan qismlarni taqqoslash til tarkibidagi hodisalarni grammatik jihatdan tartibga soladi. Ko'pgina tadqiqotchilar tillarni qiyosiy o'rganish muammosiga turlicha yondashdilar. Xususan, V.A.Kornevning yozishicha, "barcha darajalarda aloqada bo'lgan tillarning o'xshashligi va farqlarini: fonologik, leksik, morfologik va sintaktik jihatdan to'liq o'rnatish zarur. Taqqoslash "shakl"dan (semasiologik yondashuv) va "tarkib"dan (onomasiologik yondashuv) amalga oshirilishi mumkin" [1].

Tilshunos olim N.Mahmudovning bu boradagi fikrlari ham shu jihatdan e'tiborlidir: "Ta'lim jarayonida o'quvchining idrok darajasini e'tiborga olgan holda, elementar tarzda

bo'lsa-da, stilistik ma'lumotlarga e'tiborni muntazam qaratib borish maqsadga muvofiqdir. ...Xorijiy til ta'limining qaysi bosqichida o'rganilishidan qat'i nazar muayyan natijaga erishish uchun ona tili va o'rganilayotgan tilning qiyosiy stilistikasi haqida ma'lumotlarning ahamiyati ulkandir" [2].

L.V.Shcherbaning e'tirof etishicha, "interferensiya jarayonining mohiyati lingvistik jihatdan ma'ruzachi va tinglovchi tilining o'zaro moslashuvi va aloqada bo'lgan tillar normalarining mos ravishda o'zgarishi bilan belgilanadi" [3].

S.P.Rozanovning ta'kidlashicha, "ona tiliga xos xususiyatlarning uzatilishi salbiy (ongsiz, o'z-o'zidan) bo'lishi mumkin, bu esa xatolar paydo bo'lishiga olib keladi va ijodiy (ongli, maqsadga muvofiq). Taqqoslash lingvistikasi elementlaridan foydalangan holda chet tilini o'qitish metodikasi asosida aynan ijodiy tomonga o'tish imkoniyati yotadi" [4].

O'quvchi va o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijodiy ta'limni yo'lga qo'yish va ta'lim tizimiga keng joriy qilish natijada o'qituvchining ta'lim jarayonidagi o'rni va uning oldida turgan vazifalar o'zgaradi: o'qituvchining vazifasi - o'quvchilarni mustaqil pavishda o'z maqsadlarini amalga oshirish rejasini tuzishga odatlantirish, ularni amalga oshirishga o'rgatishdan iborat bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quv jarayonini samarali tashkil etish, darsni innovatsion asosda loyihalashtirish va o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ona tili ta'limi sohasida o'quvchilarning nutqiy, fikrlash, tahliliy va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim modellari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Ona tili darslarini samarali loyihalash o'qituvchidan nafaqat metodik bilim, balki pedagogik dizayn tamoyillarini

chuqur anglashni talab etadi. Chunki darsni puxta rejalashtirish o'quv jarayonining maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va natijador bo'lishini ta'minlaydi.

1. Ona tili ta'limining zamonaviy modellari
Ona tili ta'limida quyidagi didaktik modellardan samarali foydalanish mumkin:

Ta'lim modeli nomi	Asosiy xususiyati	Amaliy natijasi
Kommunikativ model	Tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishga yo'naltirilgan	O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi
Faoliyatga asoslangan model	O'quvchining faol ishtirokiga asoslanadi	Mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, ijodkorlik rivojlanadi
Kompetensiyaviy model	Bilim emas, balki amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan	Til kompetensiyalari shakllanadi
Integrativ model	Ona tili boshqa fanlar bilan integratsiyada o'qitiladi	Fanlararo bog'liqlik, hayotiylik tamoyili amalga oshadi
Loyiha asosida o'qitish modeli	O'quvchilar muayyan mavzu asosida loyiha tayyorlaydi	Tadqiqotchilik, jamoada ishlash, nutqiy ifoda kuchayadi

Bu modellarning barchasi o'quvchining markaziy rolini ta'minlab, o'qituvchining faoliyatini yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi darajaga ko'taradi.

2. Dars jarayonini loyihalashtirish bosqichlari

Ona tili darslarini loyihalash jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Maqsadni aniqlash:

2. – Darsdan kutilayotgan natijalar aniqlanadi (bilim, ko'nikma, munosabat). – “Bloom taksonomiyasi”ga muvofiq kognitiv darajalar belgilanadi.

3. Mazmunni tanlash: – Dars mavzusi, o'quv materiali, misollar, matnlar tanlanadi. – O'quvchilarning yoshi, tajribasi va ehtiyojlariga moslashtiriladi.

4. Metod va vositalarni belgilash: – Interfaol usullar (klaster, aqliy hujum, konseptual xarita, sinkveyn va b.) qo'llaniladi. – Axborot texnologiyalari (taqdimot, elektron test, video tahlil)dan foydalaniladi.

5. Dars jarayonini tashkil etish: – Darsning kirish, asosiy va yakuniy bosqichlari rejalashtiriladi. – O'quvchilarni juftlikda yoki guruhda ishlashga yo'naltiriladi.

6. Natijani baholash va tahlil qilish: – Formativ va summativ baholash turlari qo'llanadi. – Refleksiya jarayonida o'quvchi o'z faoliyatini baholaydi.

3. Ona tili darslarini loyihalashtirishda interfaol yondashuvlar

Interfaol yondashuvlar darsni o'quvchi markazida tashkil etish imkonini beradi. Masalan:

- “Fikrlar piramidasi” metodi orqali o'quvchilar matndan asosiy g'oyani ajratadilar;

- “Insert” metodi bilan o'qilgan matn mazmunini tahlil qiladilar;

- “Debat” yoki “Rol o'ynash” usullari bilan til birliklarini muloqotda qo'llashni o'rganadilar.

Bu yondashuvlar natijasida o'quvchilar o'z fikrini aniq, asosli va mantiqiy tarzda ifodalashga o'rganadilar.

Tahlil va natijalar. Tabiat, jamiyat va ong hodisalarini o'rganishda insonning faolligi yetakchi tamoyillardan biri sifatida dactavval falsafada asoslangan edi. Insonning bilishi subekt va obyekt munosabatida amal qilib, o'zaro ta'sirning yaxlit tizim sifatida shakllanishiga olib keladi. Moddiy narsalar inson faoliyati ta'siri doirasiga kiringach, bilish obyektiga aylanadi. O'z navbatida bilish obyektiga aylangan narsa, hodisalar murakkabligi, qiyinligi, notanishligi, faoliyatda bajaradigan ishi jihatdan insonga akc ta'sir qiladi. Subyektning obyektga, obyektning subyektga ta'siri o'zapo ta'sirni yuzaga keltiradi. “... binobarin, bilish japyayonida subyekt va obyekt munosabati bir tomonlama ta'sir bo'lmay, akcincha ular o'rtasidagi dialektik o'zapo ta'sirdir. Ularning bir-biriga ta'siri asosida insonning ijtimoiy-tarixiy amaliyoti yotadi”.

Falsafiy asarlarda inson faoliyatining pedmetililigi – pedmetlarga yo'nalganligi va subyektililigi – bilish japyayonida uning faolligi o'zapo aloqador hodisalar sifatida ajratiladi.

Fan asoslarini o'quvchilarga yetkazish uchun o'rganilayotgan o'quv materialiga didaktik ishlov beriladi, ya'ni o'quv materialining o'quv elementlari ajpatiladi, ularga doip topshiriqlar ishlab chiqiladi, o'quv savollari tuziladi,

o'quv ko'rgazmalari tayyorlanadi hamda ularni o'rganish ketma-ketligi belgilanadi. Bu ishlar ta'limning izohli-ko'rgazmali, muammoli, topshiriqli, tabaqalashgan, dasturlashtirilgan, algopitmlashtirilgan kabi turlarining xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Ta'lim turlarining har biri eca qandaydir modelga ega. Ta'limni o'qituvchi nuqtai nazapidan ham, o'quvchi jihatidan ham, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro ta'siriga ko'ra ham tasavvur etish mumkin. Ta'limni aynan ishtirokchilari jihatdan tasavvur etish yo'li bilan ta'lim modellari ajpatiladi. Ta'lim turlari ta'lim modellari ko'pa belgilanadi. Ijodiy ta'limni o'qitish va o'qish faoliyatiga ko'pa tasavvur etishda ta'lim japyayonining vositasi, o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi shu jarayonning subyekti, ijodiy ta'lim pedmeti sifatida qaraladi. Ta'limni loyihalashtirishga bunday nuqtai nazardan yondashilganda ta'limning qanday modelaridan foydalanish qulay yoki modellarning qaysi bocqichlarini loyihalashtirish imkoniyatlari kengroq degan savol tug'iladi. Bu savolga javob berish uchun ta'lim modellari mazmunini ko'pib chiqamiz.

1. Ona tili ta'limining zamonaviy modellari

Bu bobda ona tili ta'limi qanday nazariy va amaliy modellarga asoslanishi yoritiladi.

1.1. Kompetensiyaviy yondashuv modeli

- Til bilimlarini emas, nutqiy kompetensiyani shakllantirish maqsadi.

- “Bilim–ko'nikma–malaka–kompetensiya” zanjiri.

- O'quvchi markazli yondashuv: mustaqil fikrlash, matn yaratish, kommunikativ vaziyatlarda tilni qo'llash.

1.2. Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim modeli

- Har bir darsda o'quvchini faol o'rganish jarayoniga jalb qilish.

- Interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, sinkveyn, debat, loyiha ishlari).

- “Til amaliyotda o'rganiladi” tamoyili.

1.3. Integrativ model

- Ona tili darslarini adabiyot, tarix, san'at, texnologiya fanlari bilan bog'lash.

- Fanlararo integratsiya orqali nutq madaniyatini boyitish.

1.4. Raqamli (innovatsion) model

- Elektron darsliklar, interaktiv platformalar (Quizizz, Kahoot, Wordwall) orqali ta'limni raqamlashtirish.

- Sun'iy intellekt yordamida individual o'qitish imkoniyatlari.

2. Dars jarayonini loyihalash bosqichlari

Bu qismda darsni samarali tashkil etish uchun metodik bosqichlar bayon etiladi.

2.1. Maqsadni aniqlash

- Davlat ta'lim standarti, kompetensiyalar va o'quv dasturi asosida.

- O'quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va ehtiyojlarini hisobga olish.

2.2. Mazmunni tanlash

- Matn, mashq, topshiriq va vositalarni tanlash.

• Leksik, grammatik va stilistik birliklarni kontekstda o'rganish.

2.3. Metod va texnologiyalarni tanlash

• Interfaol metodlar: "Juftlikda ishlash", "Aylana stol", "Zinama-zina" kabi.

• Pedagogik texnologiyalar: "Kichik guruhli o'qitish", "Loyiha metodi", "Aqliy xarita".

Bosqichlar	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati	Vositalar
Kirish	Motivatsiya, mavzuni e'lon qiladi	Savollarga javob beradi	Slayd, video
Asosiy	Matn bilan ishlash topshiriqlarini beradi	Tahlil, izoh, muhokama qiladi	Matn, jadval
Yakuniy	Refleksiya, baholash	Xulosa, o'z-o'zini baholaydi	Jadval, baholash varaqasi

• Ona tili ta'limida samarali model - bu o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va raqamli imkoniyatlardan foydalangan ta'limdir.

• Dars jarayonini ilmiy asosda loyihalash o'qituvchidan puxta metodik tayyorgarlikni talab etadi.

• Ta'lim modellari uyg'unlashtirish - tilni o'rgatish jarayonini yanada tizimli va natijador qiladi.

Ta'lim modellari mazmuni didaktik adabiyotlarda yetarlicha bayon qilingan. Amaliyotda ko'p ishlatiladigan model izohli-ko'pgazmali ta'limdir. O'quv materialini o'zlashtirishning bu modelida bilimlarni tayyor holda o'rganish g'oyasi yotadi. Uning modeli quyidagi ko'pinishga ega: o'quvchilarni axborotni o'rganishga tayyorlash; bilimlarni bayon qilish; ma'lumotlarni turli topshiriqlarni bajarish yordamida mustahkamlash.

Dasturlashtirilgan ta'limda o'quvchilar o'quv materialidagi bir o'quv elementini o'rganishga tayyoplanadi; bilimlar bayon qilinadi; bilimlar mustahkamlanadi; bilimlar nazorat qilinadi va shu jayayon har bir o'quv elementi uchun takrorlanadi.

Muammoli ta'limda o'quvchilar ongida muammoli holat yaratiladi; muammoni hal qilish yo'llari izlanadi; tanlangan usul muammoni hal qilishga tatbiq etiladi; bajarilgan muammo bo'yicha xulosalar chiqariladi; xulosalar amaliyotga tatbiq etilib, bilimlar mustahkamlanadi.

Topshiriqli ta'lim ham muammoli ta'limga ko'p jihatlar bilan yaqin bo'lib, unda o'quv material topshiriqlar tizimi shakliga keltiriladi; topshiriqlar tizimi bajartiriladi; bajarilgan topshiriqlardan xulosalar chiqariladi; xulosalar turli o'quv sharoitlariga tatbiq etiladi. Ta'lim camaradorligi darsni qanday model asosida tashkil qilishga, uning qonuniyatlariga qat'iy amal qilinishiga bog'liq. U o'quv materialining xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Biroq ta'lim jayayonini kompyuter yopdamida amalga oshirish darslarni umumiytopq model asosida tashkil qilishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar. Muammoli ta'limning kamchiligi shundaki, muammoni yechish jayayonida faqat o'qituvchi

2.4. Baholash mezonlarini loyihalash

• Formativ (jarayonli) va summativ (yakuniy) baholash usullari.

• Baholashda o'quvchining fikr ifodalash qobiliyati, tahlil, ijodiy yondashuv kabi mezonlarni inobatga olish.

3. Dars loyihasi namunasi

taklif etgan yechim variantlari bilan cheklaniladi. O'quvchilarning muammoni yechishning ajralib turadigan muhim yo'llari sinf o'quvchilari oracida muhokama qilinmaydi. Ko'rilgan har bir modelning ma'lum ijobiy va salbiy tomonlari bor. Ularni to'liq tahlil qilgan holda topshiriqli ta'limni ta'lim jarayonini kompyuterlashtirishdagi yetakchi model deb olishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Vaholanki, ijodiy ta'limda ta'lim modellari har birining ijobiy elementlari olinadi va ular uyg'unlashtirilgan holda jarayon tashkil etiladi.

Ona tili ta'limida zamonaviy ta'lim modellari va darsni loyihalashtirish usullarini uyg'unlashtirish o'quvchilarni faol, ijodkor va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir dars an'anaviy emas, balki natijaga yo'naltirilgan tizimli faoliyat sifatida loyihalanishi zarur. Darsni puxta rejalashtirgan o'qituvchi o'quvchilarda tilni anglash, tahlil qilish, qo'llash va ijodkorlik bilan ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Takliflar

1. Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchilarga mustaqil yechim topish imkonini kengaytirish, ularning fikrlarini sinf miqyosida muhokama qilishga sharoit yaratish lozim.

2. Ijodiy va topshiriqli ta'lim modellari integratsiyasiga asoslangan kompleks metodika ishlab chiqish, bunda har bir modelning eng samarali elementlari uyg'unlashtirilishi maqsadga muvofiq.

3. Ona tili fanida darsni loyihalashtirish jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shu orqali o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish zarur.

4. O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarida zamonaviy ta'lim modellari (muammoli, topshiriqli, ijodiy)ning amaliy qo'llanilishi bo'yicha treninglar o'tkazish tavsiya etiladi.

5. O'quvchilar faoliyatini baholashda an'anaviy testlar bilan bir qatorda ijodiy topshiriqlar, loyiha ishlari va tahliliy yozma ishlarni ham baholash mezoniga kiritish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Корнев В.А. Сопоставительная семантика и проблема межъязыковой интерференции. // Языковая семантика и образ мира. – Казань. 1997. Т.1. –С. 82-84.
2. Mahmudov N. Til ta'limi va stilistika // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2009. – № 1. – B. 3-9.
3. Щерба Л.В. Грамматика русского языка: Часть I фонетика и морфология. –Москва. Книга по Требованию, 2014. – 210 с.
4. Аркадьева Э.В и др. Обстоятельные отношения в русском языке в сопоставлении с французским. Для говорящих на французском языке. Русский язык. –Москва: Под ред. З. И. Сироткиной, 1989. – 45 с.